

O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Xasanova Umida Urganch Davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya : Ushbu maqolada pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlari, kompetensiya mutaxassislik bilimlari, kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis qanday bo‘lishi, sifatlari yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: kompetentlik, qobiliyat, ko‘nikma, malaka, kreativlik, innovatsiya, ijtimoiy kompetentlik, metodika

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o‘quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagи malakalarini samarali ravishda qo‘llashga,o‘rgatish, mustaqil o‘rgatish, mustaqil ravishdafanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko‘zda tutilmagan noaniq, ya’ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo‘llay oladigan xususiyatlarni egallahni tarbiyalashdan iboratdir.

O‘quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda, ayniqsa, ona tili va adabiyat faniga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birlgilikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim.

Kompetensiya – muayyan fan bo‘yicha o‘quvchi egallagan nazariy bilim, ko‘- nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Inson qaysi qasb sohibi bo‘lishidan qatiy nazar o‘z ishiga, mashg’ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga, o‘z-o‘zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O‘qituvchi ham bolalarni sevsа, tarbiyalasa, o‘zi ham ulg’ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O‘qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero, kelajak yoshlar qo‘lida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarni shakllantirilishi, dars davomida o‘quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlavchi “to‘ti”ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o‘zaro hamkorlikda ishlovchi, o‘zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg’or pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Interfaol metodlarni qo‘llab dars o‘tish o‘quvchilarda har tomonlama ilmiy nazariy bilimlarni mustaqil egallah, bilim va ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o‘quvchilarning ilmiy dunyo-qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o‘rgatish, ijodiy qobiliyarlarini aniqlash va ro‘yobga chiqarish, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat

kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta'minlaydi. Interfaol usullarda o'qituvchi o'quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun muhit yaratmog'i, fan asoslarini egallahsha yo'naltirmog'i, qiziqish, mehr uyg'otish bilan shug'ullanadi. Yangi pedagogik texnoligiya dars o'tish usullari va shakllarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O'qitishning innovation, nostandart (interfaol) shakllari kompyuterli o'yinlar, intrenetdan foydalanish, elektron darsliklar bilan turli usullarda yangi mavzuga ko'proq e'tibor qaratish, o'qitishni suhbat, o'yin, musobaqa, sahna ko'rinishli, musiqali, savol-javob, aqliy hujm, mushoira sayyohat, intervju, tijorat, babs-munozara kabi usullarda dars o'tishni talab qiladi. Darsning borish jarayonida ta'limiyl metodlar va usullar almashina boradi. Noan'anaviy darsda o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi. O'qituvchi o'quvchi bilan yakkama-yakka, interfaol usulida harakat qiladi. Interfaol darslarni tashkil etishda o'qituvchining notiqlik san'ati, chiroyli so'zlash mahorati o'quvchining diqqatini jalb etadi. O'qituvchi-o'quvchi ruhini, psixologiyasini yaxshi bilishi har bir o'quvchi bilan individual ishlashni, unga nima topshiriq berishni yaxshi bilishi kerak. O'qituvchidan dars o'tishda ta'lif va tarbiyaning uygunligiga, fanlararo bog'liklik, davr yangiliklari, fan yangiliklaridan boxabar bo'lmoqlik, pedagogik ko'nikma va yuksak saviya, ijodkorlik talab etiladi. “Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur? Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish “kompetentlik” tushunchasi ta'lif sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:
- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
 - yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
 - davr talablarini chuqr anglaydi;
 - yangi bilimlarni izlab topadi;
 - ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1.Ijtimoiy kompetentlik–ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2.Maxsus kompetentlik–kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug’aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ma’nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlar namoyon bo‘ladi. Xususan, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi. Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikningtarkibiy asoslari qayd etib o‘tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o‘quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlaydi. Kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lish uchun pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e’tiborni qaratishi zarur. O‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogga “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Pedagogika. M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. T., O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Юзликаева Э., Мадъярова С., Янбарисова Э., И.Морхова. Теория и практика общей педагогики. Т., ТГПУ, 2014.
3. Хошимов К., С.Осилов. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т., “Ўқитувчи”, 2010.
4. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик техналогия ва педагогик маҳорат. “Фан”.2006
5. Omonov X., Xo‘jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maҳorat. T., “Iqtisod-moliya”, 2009 yil